



N.B. Shaumarov

Yog'och va plastmassa konstruksiyalari



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

N.B. Shaumarov

Yog'och va plastmassa konstruksiyalari

Yog'och va plastmassa konstruksiyalari fanidan
5340200 – “Bino va inshootlar qurilishi (temir yo'l binolari) ta'lim
yo'nalishidagi 4-bosqich bakalavriat talabalari va professor-o'qituvchilar
uchun darslik

“Complex Print” nashriyoti
Toshkent – 2022

Shaumarov, N.B.

Yog'och va plastmassa konstruksiyalari [Matn] : darslik / N.B. Shaumarov .- Toshkent: "Complex Print", 2022.-216 b.

Ushbu darslikda yog'och va plastmassalardan tayyorlangan yuk ko'taradigan konstruksiyalarni hisoblash va loyihalashga doir asosiy ma'lumotlar bayon qilingan. Unda yog'och va plastmassalarning xossalari haqida qisqacha ma'lumotlar, konstruksiyalarni tayyorlashda keng qo'llaniladigan birikmalar turlari va hisobi, tom va orayopma to'shamalari, panjaralari, vassa to'sinlar (progonlar), to'sinlar, yopma panellar, fermalar, ravoqlar va romlarni hisoblash va loyihalashga doir misollar o'rin olgan.

Shuningdek darslikda yog'och va plastmassa konstruksiyalarni hisoblashda qo'llaniladigan ma'lumotlar amaldagi Qurilish me'yorlari va qoidalari va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida keltirilgan.

Darslik oliy o'quv yurtlarining qurilish yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavrlari va qurilish mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

Universitet ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etildi.

Tuzuvchi: N.B. Shoumarov t.f.n., prof.

Taqrizchilar: A.I. Adilxodjayev-t.f.d., prof.
S.A. Yusufxadjayev-dots.

ISBN 978-9943-8214-7-7

© "Complex Print" nashriyoti, Toshkent, 2022
© Shaumarov N.B., 2022

Kirish

O'zbekiston Respublikasida Mustaqillik yillarida Oliy ta'limni isloh qilish borasida keng ko'lami, istiqbolga mo'ljallangan ishlar amalga oshirilmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi, Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlari ning ishlab chiqilishi va joriy etilishi hamda boshqa muhim hujjatlarining qabul qilinishi oliy ta'lim muassasalarining moddiy bazasini tubdan yaxshilashni, yuqori malakali kadrlar tayyorlashni, ularning har tomonlama chuqur bilim, tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Ushbu vazifalarni ro'yobga chiqarishda oliy ta'lim sohalarining o'zbek tilidagi darslik va o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlangani ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur o'quv qo'llanma yaratilishi qurilish sohasi uchun tayyorlanayotgan bakalavr va magistrlar uchun shu paytgacha yog'och va plastmassa konstruksiyalarni hisoblash va loyihalash bo'yicha o'zbek tilda darslik va o'quv qo'llanmalarining kam miqdorda mavjudligining o'rmini to'ldirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, yog'och eng qadimiy qurilish materiallaridan hisoblanadi. Yog'ochdan tayyorlangan konstruksiyalar qishloq xo'jalik binolarida, yog'ochni qayta ishlashga mo'ljallangan ishlabchiqarish binolarida, kimyoviy agressiv muhit mavjud bo'lgan binoinshootlarda, jamoat binolarida (sport inshootlari, ko'rgazma zallari, savdo pavilonlari va shunga o'xshash), yordamchi sanoat va ombor binolarida, shuningdek vaqtinchalik bino va inshootlarda muvafaqqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. Xalqimizning individual turarjoy binolari, mahalla guzarlari, to'yxonalar, oshxonachoyxona binolarini barpo etishida ham yog'ochdan keng miqyosda, o'ziga xos tarzda foydalanishini ta'kidlab o'tish e'tiborga molikdir.

Zamonaviy qurilish amaliyotida plastmassalar va sintetik materiallardan foydalanish hajmi dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida yildanyilga oshib bormoqda. O'zbekiston – kimyo sanoati rivojlangan mamlakatlar qatorida turadi, shu sababli bizda istiqbolda qurilishbop plastmassalarning ko'plab turlarini yaratish va ularni qurilishda qo'llash uchun qulay sharoitlar mavjud.

Zavod sharoitida tayyorlanuvchi yog'och va plasstmassa konstruksiyalar o'zining industrialligi, massasining kichikligi, montaj qilishning osonligi, tannarxining pastligi, yuqori mustahkamlik va pishqlikka egaligi, me'moriy badiiy talablarga javob berishi kabi ko'rsatkichlari bilan ajralib turadi. Ular binolarni tiklashda boshqa

Shaumarov Nemat Bahramovich

Yog'och va plastmassa konstruksiyalari

Darslik

Muharrir: O. Rahimov

“Complex Print” nashriyoti, Toshkent, 2022

Nashriyot lisenziyasi: Ai №004, 20.07.2018 y.

“Complex Print” nashriyoti, Toshkent sh., A. Navoiy ko'ch., 24-uy.

Bosishga ruxsat etildi 22.06.2022 y. Bichimi 60x84^{1/16}

Shartli bosma tabog'i 12,56. Adadi 30 nusxa.

Buyurtma № 185. 22.06.22 y.

“Complex Print” bosmaxonasida chop etildi.

Lisenziya № 10-3606, 10.12.2016 y.

Toshkent sh., A.Navoiy ko'ch., 24.

Tel.: +998 71 244 40 89